
QO'SHTEPALIK YOSHLARNING G'ALABASI



Qo'shtepam_sening_yoshlaring

“Besh tashabbus Olimpiadasi” shiori ostida o'tkazilayotgan musobaqalarning Respublika bosqichlarida Qo'shtepalik yoshlar ham munosib ishtirok etishmoqda. Jumladan, Qiyqi mahallasi yoshlari sportning “Streetbol” turi bo'yicha Respublika bosqichida faxrli 1-o'rinni egallab oltin medal sohibiga aylandilar. Bundan tashqari Karnaychi mahallasi yoshlari sportning “Engil atletika” turi bo'yicha 1-o'rinni egallab oltin medalga ega bo'lishdi.

Shuningdek, Qorakaltak mahallasi yoshlari “Para yengil atletika”dan, Xumdon mahallasi yoshlari esa “Para shaxmat”dan 1-o'rinni egallashib, tumanimizga oltin medal bilan qaytishdi.

Xalqobod mahallasi yoshlari ham musobaqalarda faol ishtirok etishib, sportning “Engil atletika” turi bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda 3-o'rinni egallab, bronza medali sohibiga aylandilar.

Yuqoridagi natijalar tumanimizdagi yoshlar o'rtasida “Besh tashabbus olimpiadasi” musobaqalarining keyingi mavsumida qatnashish ishtiyoqlarini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2023-06-23 13:11:32